FALSAFA VA TARIX INSONIYAT TAFAKKURI RIVOJINING DIALEKTIK BIRLIGI

O‘rozboyeva Charos
Jizzax davlat pedagogikka universiteti ingliz tili mutaxassisligi
1-kurs 640-25 gurux talabasi.
Ilmiy raxbar: falsafa fanlari doktori, professor **A.Saitkasimov**

“Inson tabiatan ijtimoiy mavjudotdir .”
Aristotel.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada falsafa va tarix fanlarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning insoniyat tafakkuri va jamiyat rivojidagi o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Falsafaning nazariy-metodologik asos sifatidagi roli hamda tarixning empirik bilimlar tizimi sifatidagi xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada dialektik metod, tarixiylik prinsipi va sistemali yondashuv asosida ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: falsafa, tarix, dialektika, metodologiya, sivilizatsiya, tafakkur , tarixiy jarayon, ijtimoiy qonuniyat.

Falsafa va tarix insoniyat tafakkurining eng muhim ikki ustuni hisoblanadi. Falsafa — borliq, bilish va qadriyatlar haqidagi umumiy qonuniyatlarni o‘rgansa, tarix — insoniyatning o‘tmishdagi faoliyatini, voqea-hodisalarni va ularning rivojlanish jarayonini o‘rganadi. Shuningdek, tarixiy jarayonlarni falsafiy tahlil qilish orqali ijtimoiy qonuniyatlar , sivilizatsion rivojlanish bosqichlari va insoniyat tafakkurining evolyutsiyasi yoritiladi. Shu boisdan, mazkur maqolada falsafa va tarixning dialektik birligi, ularning ilmiy ahamiyati va zamonaviy jamiyatdagi roli tahlil qilinadi.

Ushbu ikki fan o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-biriisiz to‘liq anglab bo‘lmaydi. Tarixiy faktlar falsafiy tahlilsiz oddiy voqealar yig‘indisi bo‘lib qoladi, falsafa esa tarixiy asosga ega bo‘lmasa, mavhum nazariyaga aylanadi. N.Jo‘raevning ta’kidlashicha, “Har bir xalq, mamlakat tarixi – alohida va ulkan voqelik. Ayni paytda ana shu tarix o‘sha xalq uchun takrorlanmas va noyob qadriyatdir. Insoniyat tarixi esa qadriyatlar yaxlitligi hisoblanadi”. [1, 191 b.].

Falsafa va tarix o‘rtasidagi aloqani uch darajada ko‘rib chiqish mumkin:

Ontologik daraja. Bu darajada falsafa tarixiy voqelikning mohiyatini ochib beradi. Tarixda sodir bo‘layotgan hodisalar tasodifiy emas, balki ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Tarixiy bilimlar qanday shakllanadi? Falsafa bu savolga javob beradi. Tarixiy haqiqatni anglashda subyektiv va obyektiv omillar o‘rtasidagi munosabat muhimdir .

Metodologik daraja Falsafa tarixni o‘rganish metodlarini belgilaydi.dialektik metod sistemali yondashuv tarixiylik prinsipi. Dialektika va tarixiy jarayon. Dialektika — rivojlanishning umumiy qonunlari haqidagi ta’limot. Tarixiy jarayonlar ham doimiy o‘zgarish va qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadi. Asosiy dialektik qonunlar: qarama-qarshiliklar birligi va kurashi. Miqdordan sifatga o‘tish. Inkorni inkor. Masalan, jamiyat taraqqiyoti eski tuzumning inkori orqali yangi tizimga o‘tadi.

Tarixiylik prinsipi har qanday hodisani uning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va natijalari bilan birga o‘rganishni talab qiladi. Bilish tarixi shundan guvohlik beradiki, ibtidoiy ongga xos bo‘lgan sub’ekt va ob’ektni keskin farqlamaslik, masalan, olamni obrazli idrok etish, uni jonlantirishga (gilozoizm), ruhlantirishga (animatizm), dunyo binosining qismlarini jonli deb hisoblashga moyillik (animizm), shuningdek, tabiat hodisalarini insonga o‘xshatish (antropomorfizm), tabiiy jarayonlar munosabatini urug‘chilik munosabatlariga qiyos qilish (urug‘chilik sosiomorfizmi), mantiqiy fikrlashning deyarli yo‘qligi dunyoqarashning, shu jumladan, falsafiy dunyoqarashning boshlanish nuqtasi bo‘lgan inson – olam munosabati masalasining qo‘yilishiga imkon bermagan. Shuning uchun A.Jalolov shunday deb yozadi: «...asosiy maqsad falsafani osmoniylik, hayotdan ajralganlik, soxta mavhumiylik mayllaridan xalos etish, uni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini insoniylik

negizida ko‘rishning muhim nazariyuslubiy, ma’naviy yo‘naltiruvchilik omiliga aylantirishdir». [2, 251 b.].

Bunda ibtidoiy ong shaklini sosioantropomorfik dunyoqarash deb hisoblash va uning asosiy xususiyatini mantiqiy fikr yuritishda deb emas, balki emosional – assosiativ hayol surishda deb bilish ustuvordir. Mazkur xususiyatlar muayyan darajada mifologiyada va ilk diniy tasavvurlarda o‘z ifodasini topadi. Lekin, ayni paytda, ularda ibtidoiy ajdodimizning olamni va o‘z – o‘zini bilishga bo‘lgan intilishi ham kuzatiladi. Uni hissiyot bilan tafakkur o‘rtasidagi bilish hodisasi deb tavsiflash mumkin. Q.Ro‘zimatzodaning ta’kidlashicha, «Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma’naviy faoliyat turidir». [3, 221 b.].

Mifologiyaning mohiyati va bilishda tutgan o‘rniga nisbatan turli qarashlar mavjud. Xususan, ba’zi tadqiqotchilar mifologiyani borliqni tushuntirish usuli deb hisoblasa, boshqalari uni ibtidoiy ajdodlarimizning olamni va o‘z – o‘zini bilishga bo‘lgan intilishi deb biladilar . Bizningcha, keyingi qarash haqiqatga yaqinroq bo‘lsa kerak.

Sivilizatsion yondashuv Tarixni o‘rganishda sivilizatsion yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvda jamiyatlar madaniy , diniy va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilinadi.

Sivilizatsiyalar:

Sharq sivilizatsiyasi

G‘arb sivilizatsiyasi

Islom sivilizatsiyasi.

Sharqda "Tarix falsafasi" tushunchasi o‘ziga xos jihatlarga ega. Forobiy qarashlariga ko‘ra, jamiyat taraqqiyotini ilohiy qonunlar boshqaradi. U Aristotelning jamiyat rivojlanishi xaqidagi ta’limotini o‘z xulosalari bilan boyitdi. Beruniy esa tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tabiat, astrologiya, astronomiya, kecha va kunduz, fasllar almashinuvi orqali o‘rgandi. U "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida insoniyat tarixiga falsafiy nuqtai nazardan yondashadi, tarixni anglash, idrok etishda butunlay yangicha qarashlarni o‘rtaga tashlaydi. Beruniy dunyo tarixshunosligida asotirlar, afsonalar va rivoyatlardan ilmiy bilish hamda dunyoviy ta’limotga o‘tishda muhim hissa qo‘shdi.

Sharq tarix falsafasi bir necha yo‘nalishda ko‘zga tashlanib, voqealar tahlili ibratli hikoyalar, pand-nasihatlar, yuksak axloqiy me’yorlar bilan mushtarak holda olib boriladi. Ayrim hollarda tarixga geografik-hududiy jihatdan yondashiladi. Sayohatnomalar orqali jamiyat tarixi yaratiladi, podshohlarning boshqaruv usuli, siyosati, uning mohiyati ochib beriladi. Har bir sivilizatsiya o‘z falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. Tarix faqat voqealar yig‘indisi emas — bu inson faoliyatining mahsulidir.

Tarixda shaxsning roli ham muhim hisoblanadi. Liderlar tarixni tezlashtirishi mumkin g‘oyalar orqali jamiyat jarayonlarini o‘zgartiradi, ong va tafakkur rivoji tarixiy jarayonni belgilaydi. Falsafa tarixni tushuntiradi, tarix esa falsafani boyitadi. Ularning o‘zaro ta’siri quyidagicha namoyon bo‘ladi: Tarix falsafaga material beradi. Falsafa tarixni umumlashtiradi. Ikkalasi birgalikda jamiyat rivojini tushuntiradi. Zamonaviy davrda globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo aloqalar bu ikki fan o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada kuchaytirdi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. - Т.: «Маънавият», 2008. - Б.191.

2. Жалолов А. Мустақиллик масъулияти. – Т.: «Ўзбекистон»,1996. – Б.251.

3. Рўзиматзода Қ. Билиш фалсафаси // Фалсафа. Маърузалар матни. – Т.: ЎАЖБНТ, 2000. – Б.221.